

O'TGAN KELASI ZAMONLARNING (FUTURE-IN-THE PAST) EKVIVALENTLIK MASALASI

Ismonaliyev Jamoliddin Qo'ldashaliyevich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi o'tgan kelasi zamonlarning morfologik va semantik xususiyatlari hamda o'zbek tili tizimida unga mutanosib keluvchi grammatik birliklar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: to'ldiruvchi ergash gap, o'zlashtirma gap, ko'chirma gap, birikmali to'ldiruvchi

Ingliz tilida qo'llanishi nisbatan kam uchratiladigan "Future in the Past" zamonlariga o'zbek tilida muvofiq keluvchi zamonlarning mavjud emasligi har ikki tilni o'zaro o'rganuvchilar uchun hamda tarjimashunoslik sohasida muammolarni yuzaga keltiradi.

"Future in the Past" (O'tgan kelasi) zamonlar ingliz tilida bosh gaplarga ergashib keluvchi Object Clause (to'ldiruvchi ergash gap) tarkibida keltiriladi va asosan o'zlashtirma gaplarda (Indirect Speech) qo'llanishiga duch kelamiz:

Agnes said she would go and heat some milk [3,347B.].

Bu misolda "she would go and heat some milk" – to'ldiruvchi ergash gap, "Agnes said" esa bosh gap hisoblanadi. Future Simple in the Past (o'tgan kelasi oddiy) zamonida keltirilgan to'ldiruvchi ergash gap mustaqil ega (she) va kesimdan (would go, heat) iborat. Bu misolni o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilamiz: Agnes borishini va sut isitishini aytdi.

Misolning tarjimasidan ko'rish mumkinki, ingliz tilidagi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap o'zbek tilida soda gap shakliga aylangan, to'ldiruvchi ergash gap esa to'ldiruvchi va murakkab to'ldiruvchi shakliga aylangan: "Borishini" – to'ldiruvchi, "sut isitishini" – birikmali to'ldiruvchi.

Quyidagi misolda ham o'tgan kelasi davomli zamon (Future Continuous in the Past) ifodalangan to'ldiruvchi ergash gap o'zlashtirma gap tarkibida keltirilgan:

They said (that) they would be working the whole day [4,44B.].

Object Clause (to'ldiruvchi ergash gap)

Ushbu misoldagi to'ldiruvchi ergash gap ham o'zbek tiliga murakkab to'ldiruvchi shaklida tarjima qilinishi mumkin:

Ular kun bo'yi ishlayotgan bo'lishlarini aytdilar.

Quyidagi misolda to'ldiruvchi ergash gap tarkibida o'tgan kelasi tugallangan zamon (Future Perfect Simple in the Past) qo'llanganini ko'rish mumkin:

They thought (that) they would have moved to a new flat by the next week [4,45].

Object Clause (to'ldiruvchi ergash gap)

Bu misolda ularning o'tmishdagi kelajakka nisbat bo'lgan fikrlari bayon qilinadi. Bu misolning o'zbek tiliga eng maqbul tarjimasi quyidagicha bo'lar edi:

Ular kelasi haftagacha yangi kvartiraga ko'chgan bo'lishlarini o'yladilar.

Misoldan ko'rish mumkinki, ingliz tilidagi to'ldiruvchi ergash gap o'zbek tiliga "kelasi haftagacha yangi kvartiraga ko'chgan bo'lishlarini" shaklida tarjima qilinmoqda va buni o'zbek tilida to'ldiruvchi ergash gap deya olmaymiz. Bu sintaktik qurilma o'zbek tilida murakkab to'ldiruvchi maqomiga ega.

O'tgan kelasi tugallangan davomli zamon (Future Perfect Continuous in the Past) ham boshqa o'tgan kelasi zamonlar singari bosh gapning kesimi o'tgan zamonda bo'lgan to'ldiruvchi ergash gaplar tarkibida, asosan o'zlashtirma gaplarda uchratiladi:

Bob said (that) by the end of the year he would have been working there for two year [4,45B].

Bu misol o'zbek tiliga uch xil shaklda tarjima qilinishi mumkin:

1. Bob yilning ohiriga qadar u yerda ikki yildan beri ishlayotgan bo'lishini aytdi. (Bu gap o'zbek tilida soda gap bo'lib, ingliz tilidagi to'ldiruvchi ergash gap ajratib ko'rsatilganidek murakkab to'ldiruvchi shaklini olgan.)

2. Bob yilning ohiriga qadar u yerda ikki yildan beri ishlayotgan bo'laman deb aytdi. (Bu gap o'zbek tilida ko'chirma gapli qo'shma gap hisoblanib, ingliz tilidagi namuna bilan semantic jihatdan muvofiq kelsada, struktur jihatdan mos emas.)

3. Bob aytdiki, u yilning ohiriga qadar u yerda ikki yildan beri ishlayotgan bo'ladi. (Bu gap o'zbek tilida to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanib, ingliz tilidagi namuna bilan semantic-struktur jihatdan muvofiq keladi.

Demak, ingliz tilidagi Future in the Past (o'tgan kelasi) zamonlarga o'zbek tilida morfologik ekvivalentlik mavjud emas va ularni anglashda semantik ekvivalentlikka e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бўронов Ж., Ҳошимов Ў., Исматуллаев Ҳ. Инглиз тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.

2. G'apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. –Toshkent: Turon-Iqbol, 2010.

3. John Eastwood. Oxford guide to English grammar. –London: Oxford university press, 1994.

4. Hafizov S., Abdullayev O. Ingliz tili grammatikasi. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.